TARIXIY ROMAN JANRINING LINGVISTIK VA POETIK XUSUSIYATLARI

Xushmurodova Charos Abdugani qizi
Samarqand davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy roman janrining lingvistik va poetik xususiyatlari badiiy matnning mazmuniy, lisoniy hamda estetik jihatlari uyg‘unligi asosida tadqiq etiladi. Unda tarixiy voqelikni badiiy idrok etish va qayta yaratishda leksik, grammatik, fonetik hamda uslubiy vositalarning o‘rni yoritiladi. Tarixiy roman tilida davr ruhini aks ettiruvchi arxaizmlar, istorizmlar, dialektizmlar, etnografizmlar va boshqa milliy-madaniy birliklarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy obraz yaratish, tarixiy koloritni ta’minlash, personajlar nutqini individuallashtirish hamda muallifning estetik munosabatini ifodalashda lingvopoetik vositalarning funksional ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida tarixiy roman janrining o‘ziga xosligi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uzviy birligi, til birliklarining kommunikativ-estetik vazifasi hamda milliy tarixiy-madaniy tafakkurni ifodalash imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, dilogiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya, tarixiy kolorit, estetik ta’sir, istorizm, arxaizm, etnografizm

LINGUISTIC AND POETIC FEATURES OF THE HISTORICAL NOVEL GENRE

Khushmurodova Charos Abdugani qizi
Samarkand State Technical University

Abstract: This article examines the linguistic and poetic features of the historical novel genre, based on the synthesis of the semantic, linguistic, and aesthetic dimensions of a literary text. It explores the role of lexical, grammatical, phonetic, and stylistic devices in the artistic perception and recreation of historical reality. The study analyzes the use of archaisms, historicisms, dialectisms, ethnographisms, and other national-cultural linguistic units that reflect the spirit of a given era within the language of the historical novel. Furthermore, it highlights the functional significance of linguopoetic devices in creating artistic imagery, establishing historical color, individualizing the speech of characters, and expressing the author’s aesthetic perspective. The research concludes that the distinctiveness of the historical novel genre is defined by the organic unity of historical truth and artistic fiction, the

(cc) BY

communicative-aesthetic function of linguistic units, and the capacity to articulate a national historical-cultural consciousness.

Keywords: linguopoetics, dilogy, trilogy, tetralogy, epic, historical color, aesthetic impact, historicism, archaism, ethnographism

Tarixiy roman milliy tarix, madaniyat va badiiy tafakkur dialektikasi sifatida adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix kesimida o‘rganiladigan badiiy hodisadir. Tarixiy romanning asosiy belgisi u ham adabiyot, ham tarix fani bilan aloqadorligidir. Adabiyot tarixiy shaxsni ta’riflaydi, poetik tus beradi, tarix fani esa uni tavsiflash bilan shug‘ullanadi. Bu ikki soha mushtarakligida tarixiy muhit aniq va tushunarli faktlarda, shuningdek, badiiy estetik xarakterda namoyon bo‘ladi. Tarixiy roman tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘ynligiga asoslanadi. Bunda adabiyot tarixiy haqiqatni tiklash, davr ruhini yaratish, badiiy obrazlarni shakllantirish, til va uslubni tanlash, badiiy to‘qimani asoslash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tavsiflash kabi funksiyalarni bajaradi. Bunda tarixiy romanning umumiy belgisi o‘z tabiati va shakliga ega bo‘lgan holda voqelikni keng, chuqur, o‘ziga xos epik bayon va epik obrazlarda tasvirlashidir. Xususiy belgisi esa o‘tmish haqidagi asar ekanligidir. Tarixiy romanga tanlangan mavzu o‘tmishdan olingan fakt, hujjat sifatida qayd etilgan bo‘lishi, tarixiy taraqqiyotning burilish yoki ko‘tarilish nuqtasi asar mazmunini belgilashi kerak. Shuningdek, asar yaratayotgan muallif bilan tasvirlanayotgan tarix, voqelik orasida ma’lum oraliq-masofa-distansiya bo‘lishi shart[179]. Shu faktlar asosida tarixiy haqiqatni kitobxonga tushunarli, aniq va davr ruhi bilan mushtarak tarzda yetkazish maqsadida tarixiy romanlar shakllantiriladi.

XX asrda jahon va rus adabiyotshunosligida tarixiy roman genezisi, o‘ziga xos xususiyatlari, poetikasi va tasnifi xususida bir qator tadqiqotlar yaratildi. Rus adabiyotshunosligida V. Belinskiy, A.N. Veselovskiy, M.M. Baxtin, G.N. Pospelov, Y.M. Lotman, L.Y. Ginzburg, I. Timofeyev tadqiqotlarida tarixiy romanning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, tarix haqiqati va ijodkor mahorati, tarixiy qahramon va badiiy to‘qima singari muammolarga oid fikr-mulohazalar yuritilgan[180]. Ular tarixiy qahramon obrazini tarixiy haqiqat va badiiy tafakkur uyg‘unligi, makon va zamon dialektikasi, psixologik va semiotik tasvir vositalari bilan bog‘liq holda o‘rgandilar. Ushbu metodologik yondashuvlarga asoslanib, o‘zbek adabiyotshunosligida roman va

[179]Mamurova M.R. Tarixiy romanlar va ularning o‘rganilishi. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE ISSN 2992 – 8834 https://science-research.org.uz/index.php/UJSSPC VOLUME 3 ISSUE, 29 OCTOBER 2025. – B. 77–81.

[180] Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1955. – 511 с.; Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 487 с.; Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 207 с.; Поспелов Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978. – 189 с.; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 387 с.; Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Советский писатель, 1971. – 449 с.; Тимофеев И. Русский советский исторический роман. – Москва: Художественная литература, 1983. – 277 с.

(cc) BY

uning o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi, asoslari xususida A. Fitrat, M. Qo‘shjonov, S. Mirvaliyev, A. Kattabekov, A. Rahimov, G‘. Murodov, I. Yaqubov, A. Nosirov, Z. Rahimov kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu sohada muayyan tayanch vazifasini o‘taydi[181]. Mustaqillik yillarida o‘zbek tarixiy romanlarning tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligida shakllantirilishi, romanlarda tarixiy voqelik va uning badiiy-poetik ifodasi, tarixiy shaxs va uning badiiy talqini masalalari bo‘yicha G. Yusupova, A. Bobojanov, M. Hamroyeva, B. Ermatov, Z. Yaxshiyeva, L. Mardonova, E. Jumayev, A. Uzoqov, N. Rahmonov kabilarning tadqiqotlari mavjud[182]. Xususan, A. Bobojanov tarixiy romanda psixologizm va badiiy ifoda uyg‘unligi vositasida poetik ifoda kasb etishi, bu esa tarixiy shaxsning badiiy obrazini yaratishdagi mahoratni, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy voqealarga yangi nuqtayi nazardan yondashish imkonini yuzaga keltirishi kabi masalalarni tadqiq etgan. Shuningdek, olim “Imom Moturidiy” romanida qo‘llangan monolog, dialog, peyzaj va tush tasvirlarining badiiy funksiyasi qahramon ruhiyatining turli qirralarini ochishda muhim o‘rin egallashi, bu esa asar mazmunini boyitib, qahramonlarni hayotiy va ta’sirchan qilib ko‘rsatishga imkon yaratishi haqidagi fikrlari juda o‘rinlidir.

Temuriylarga bag‘ishlangan romanlarda tarixiy jarayonning badiiy voqelikka aylanish prinsiplari xususida Z. Yaxshiyeva tadqiqi muhim sanaladi. Olima Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida temuriylarning tarixiy shaxs sifatida obrazini tadqiq etish, tavsiflashda ushbu tamoyillardan o‘rinli foydalangan. Uning[183]: “Asarlarning mazmuniy mukammalligi uning syujet va kompozitsion yaxlitligida ko‘rinib, tarixiy shaxslar ptototipiga asoslangan badiiy asarlar ma’lum bir

[181] Фитрат А. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. Ж.4. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 84; Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи. №1. 1988. – Б. 167; Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. – Т.: Фан, 2004. – 75 б.; Каттабеков А. Художественное воплошение личности и исторической эпохи в современной узбекской прозе. Дисс. д-ра филол. наук. – Москва, 1985. – 45 с.; Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. Монография. – Т.: Фан, 2005. – 248 б.; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Т., 2018. – 248 б.; Насиров А. О.Ёқубов романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) … дисс. – Самарқанд, 2018. – 243 б.; Раҳимов З. Одил Ёқубов тарихий романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022. – 274 б.

[182] Юсупова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадиий талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2005. – 26 б.; Bobojanov A. Psixologik tasvir va badiiy uslub uyg‘unligi (Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani misolida). European science international conference: Analysis of modern science and innovation. – B. 238–241.; Ҳамроева М. Тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин. (Амир Темур образининг бадиий талқинлари) Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2008. – 21 б.; Yaxshiyeva Z.R. Ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazi talqinlari: tarixiy haqiqat va badiiy voqelik uyg‘unligi. Filol. fan. d-ri (DSc) …avtoref. – Jizzax, 2024. – 74 b.; Эрматов Б. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар). – Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Т., 2019. – 232 б.; Яхшиева З. Р. Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг бадиий ифодаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... (PhD) дисс. – Қарши, 2021. – 142 б.; Mardonova L. Muhammad. A “Ulug‘ saltanat” roman tetralogiyasida obrazlarning badiiy poetik talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... (PhD) diss. – Qarshi, 2022. – 26 b.; Jumayev E. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili (Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida). Filol. fan. b. fals. dok. … (PhD) diss. – Qarshi, 2023. – 147 b.; Uzoqov A. O‘zbek prozasida Amir Temur obrazining gavdalanish tamoyillari. Filol fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. – Guliston, 2023. – 134 b.; Раҳмонов Н. Тарихдан озиқланиб. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. – Б.15.

[183] Qarang: Yaxshiyeva Z.R. Ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazi talqinlari: tarixiy haqiqat va badiiy voqelik uyg‘unligi. Filol. fan. d-ri (DSc) …avtoref. – Jizzax, 2024. – B. 20.

(cc) BY

shaxs atrofida davr qahramonlariniga to‘qima obrazlarni qo‘shgan holda ma’lum bir davrning asosiy g‘oyalarini ko‘rsatib beradi. Bosh qahramon o‘z davri va makoni silsilasida jamiyat, oila, muhit o‘sha davr voqeiliklarida harakatlanadi”, - degan xulosasi asoslidir.

Istiqlol yillarida B. Ahmedov, A. Ahmedov, A. Asqarov, A. O‘rinboyev, X.Ziyoyev, A. Ziyo, H. Bobobekov, T. Fayziyev, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov, U. Uvvatov, Sh. Karimov, O. Bo‘riyevlarning tarixiy, ilmiy-ommabop asarlarida Temuriylar davri tarixi xolisona yoritilgan[184]. Jumladan, o‘zbek tarixiy romanlaridagi temuriy malikalar obrazi tasviri misolida ijodkorning obraz yaratish mahorati, odam va olamni tasvirlashdagi o‘zaro mushtarakligi hamda o‘ziga xosligi, uslubiy izlanishlari ko‘lami va badiiy mahorati kabi masalalar xususida D. Jalilova tadqiqotlari mavjud[185]. Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida tarixiy haqiqat hamda Bibixonim va Gavharshodbegim xarakterlari mantig‘i o‘zaro mutanosibligiga e’tibor qaratib, poetik tasvir teranligiga erishgan. Yozuvchi adabiy qahramonning asl mohiyatiga muvofiq keladigan belgi-fazilatlar orqali obrazlar ma’naviy-ruhiy olamini badiiy kashf etgan. Xarakterlarning xatti-harakatlariga turtki bergan hayotiy omillar va yetakchi motivlarni ishonchli badiiy dalillagan. Ayniqsa, Gavharshod begim obrazi orqali malikaning siyosiy irodasi bilan insoniy tuyg‘ulari orasidagi ziddiyat, onalik xohish irodasi va siyosiy manfaat to‘qnashuvi, alohida tarixiy shaxs fojiasi bilan saltanat taqdirining uyg‘unlashuv jarayonlarini xolis badiiy tahlil qilgan[186].

Bugungi kunga qadar maydonga kelgan o‘zbek nasri adabiyotini umumiy planda olib qaraydigan bo‘lsa, unda muayyan badiiy-tarixiy tamoyillar mavjudligi ayon bo‘ladi. Xususan:

1) albatta, tarixiy janrning maydonga kelishi tarix ilmi, sof dalillarga asoslanuvchi tarixnavislikdan farq qiladi. Tarix ilmida boshdan oxir tarixiy faktlar yetakchiligi kuzatiladi. Tarixiy janr ustida ishlayotgan ijodkor badiiy tafakkur, badiiy to‘qima, badiiy shartlilik deb ataluvchi poetik usullar vositasida ish ko‘radi;

[184] Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи Ҳ.Кароматов. – Т.: Фан, 1996. – 544 б.; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Таржимон: Бўриев Омонулло. – Т.: Камалак, 1994. – 383 б.; Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Сўз боши, таржимон ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. К. I. – Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.; К. II. 1991. – 192 б.; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Ж. II–III. 1429 – 1470 йил воқеалари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.; Мирхонд. Равзат ус-сафо // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б. Аҳмедов, У. Уватов, Ғ. Каримов ва бошқалар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –312 б.; Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. – 368 б.; Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур қизи. Ҳумоюннома: Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли – Ҳумоюн подшоҳнинг аҳволи // Форс тилидан С. Азимжонова тарж. – Т.: Маънавият, 1998. – 104 б.

[185] Djalilova D.Z. Tarixiy romanlarda temuriy malikalar obrazi. Filol. fan. b. fals. dok. …avtoref. – Toshkent, 2026. – 56 b.

[186] Qarang: Djalilova D.Z. Tarixiy romanlarda temuriy malikalar obrazi. Filol. fan. b. fals. dok. …avtoref. – Toshkent, 2026. – B. 24.

(cc) BY

2) tarixiy janrlarda badiiy aks ettirilgan barcha voqealar, shaxslar, kichik-kichik epizodlar, mushohada va munosabatlar, sifatlash va o‘xshatishlar, hatto detallargacha tarix ilmi yutuqlariga tayanmog‘i maqsadga muvofiq;

3) badiiy jihatdan yetuklik kasb etgan tarixiy janr namunalari faqat estetik vazifa bajarish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bunday asar o‘zining estetik chegaralarini yorib o‘tib, tarixiy o‘zlikni anglash maqomiga ko‘tariladi;

4) tarixiy hikoyalarda o‘tmishda ro‘y bergan muayyan voqea tasvir etiladi. Bu voqea tasviri asosida ham, albatta, tarixiy ma’lumotlar yotadi;

5) tarixiy asar milliy o‘zlikni anglash yo‘lida xizmat qilishi barobarida shaxs tarbiyasi masalasiga ham daxl qiladi;

6) tarixiy roman (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya) o‘zining keng epik ko‘lami bois tarixiy voqelikning badiiy analogiga o‘xshaydi[187].

Umuman olganda, tarixiy roman faqatgina tarixiy voqealar tasviri sifatida emas, balki tarixiy ong, milliy xotira, madaniy-ma’rifiy qadriyatlarning badiiy ko‘rinishi tarzida yuzaga keladi. Tarixiy roman janrining o‘ziga xosligi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning dialektik birligi, tarixiy shaxs va tarixiy muhitning badiiy interpretatsiyasi, shuningdek, davr ruhini ifodalovchi lingvistik va poetik vositalarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamurova M.R. Tarixiy romanlar va ularning o‘rganilishi. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE ISSN 2992 - 8834 https://science-research.org.uz/index.php/UJSSPC VOLUME 3 ISSUE, 29 OCTOBER 2025. - B. 77-81.

2. Белинский В. Г. Танланган асарлар. - Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1955. - 511 с.

3. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. - М.: Высшая школа, 1989. - 487 с.

4. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. - М.: Художественная литература, 1975. - 207 с.

5. Поспелов Г.Н. Теория литературы. - М.: Высшая школа, 1978. - 189 с.

6. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. - М.: Искусство, 1970. - 387 с.

7. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. - Л.: Советский писатель, 1971. - 449 с.

8. Тимофеев И. Русский советский исторический роман. - Москва: Художественная литература, 1983. - 277 с.

[187] Xurramov O.U. Hozirgi o‘zbek nasrida Bobur va boburiylar obrazi talqini. Filol. fan. b. fals. dok. …avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 13. (50)

(cc) BY

9. Фитрат А. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. Ж.4. - Т.: Маънавият, 2006. - Б. 84.

10. Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи. №1. 1988. - Б. 167.

11. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. - Т.: Фан, 2004. - 75 б.

12. Каттабеков А. Художественное воплошение личности и исторической эпохи в современной узбекской прозе. Дисс. д-ра филол. наук. - Москва, 1985. - 45 с.

(cc) BY